

## ALTERATIV YOQILG‘ILARDA ISHLAYDIGAN AVTOMOBIL KONSTRUKSIYALARI TAHLILI

**Xolahmad Abduholiq o‘g‘li Sahtarov**

Farg‘ona Politexnika Instituti Yer usti transport tizimlari va ularning ekspluatatsiya yo‘nalishi 3- bosqich talabasi.

**Xaydarali Fayzullayev**

Farg‘ona Politexnika Instituti Yer usti transport tizimlari va ularning ekspluatatsiya kafedrasi katta o‘qituvchisi.

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada, hozirgi kunda yer yuzida neft zaxirasining kamayishi sababli, Avtomobillarda alternativ yoqilg‘ilarini qo‘llash va alternativ yoqilg‘ilarda ishlaydigan avtomobil tuzilishilarini tahlili hamda uning ahamiyati. Neft narxi to‘xtovsiz o‘sib borishi esa hozirgi kunda gibrild yuritmali avtomobillar turlari va soni rivojlanishini taqozo etmoqda.


**Kalit so‘zlar:** konstruktiv xususiyatlar, Gibrild yuritmali avtomobillar, elektrumobillar va vodorod dvigatelli avtomobillar, elektrodvigatel.

### KIRISH

Neft zaxirasining tugab borishi barcha sohalarda turli alternativ yoqilg‘ilarni joriy qilishni taqozo etmoqda. Ammo avtomobilning konstruktiv xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ko‘pgina alternativ yoqilg‘i turlarini avtomobil konstruksiyasiga joriy qilish muammosi hal etilgani yo‘q. Hozirda texnika konstruksiyalarini hamda uning samaradorligi rivojini bir necha barobar tezlatishga sabab bo‘lgan nanoteknologiyalar joriy qilinishi orqali muammoni hal etish mumkin. Biroq, avtomobilarning to‘liq alternativ yoqilg‘i turlariga o‘tish davrida qisman alternativ yoqilg‘i bilan harakatga keltiriladigan avtomobillardan ham foydalanish mumkin. Gibrild yuritmali avtomobillar, elektrumobillar va vodorod dvigatelli avtomobillar qisman alternativ yoqilg‘i turlari bilan harakatlanadigan avtomobillar sirasiga kiradi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Neft narxining to‘xtovsiz o‘sib borishi ichki yonuv dvigatellarining rivojlanishiga, ikkinchidan elektr energiyasini kichik o‘lchamlarda uzoq vaqt saqlab turish muammosi faqat elektr energiyasi bilan harakatlanadigan elektromobillardan foydalanishga to‘sqinlik qilmoqda. Bu esa hozirgi kunda gibrildi yuritmali avtomobillar turlari (1-rasm) va soni rivojlanishini taqozo etmoqda (2-rasm).




1-rasm. Gibrildi yuritmali avtomobillarning turlari bo‘yicha ishlab chiqarish ulushi

Gibrildi yuritmali avtomobillar ikkita energiya manbaiga ega bo‘lib, “elektrodvigatel – ichki yonuv dvigateli” tizimi harakatlantiradigan tejamkor avtomobil hisoblanadi. Xususan, qurum va uglevodorodlar ajralib chiqishini 90% ga, azot oksidlarini 50% ga kamaytirgan holda 60% yonilg‘i tejamkorligi ortishiga erishilgan.

Gibrildi yuritmali avtomobillar quyidagi ish rejimlari asosida to‘liq avtomatik boshqariladi:

- 1) transport oqimida harakatlanayotgan avtomobil to‘xtaganda uning dvigatelini o‘z vaqtida o‘chirish va uni yurgizmasdan akkumulyator batariyalari hisobiga harakatni davom ettirish;
- 2) elektrodvigateldan akkumulyator zaryadini to‘ldirish maqsadida generator sifatida foydalanish (rekuperatsiya).



2- rasm. Davlatlar qirqimida ishlab chiqarilgan gibrid yuritmali avtomobillarning o'sish dinamikasi

Gibrid kuch qurilmasini ishlab chiqishdan maqsad shahar transportidan zararli chiqindilarni atmosferaga chiqishini kamaytirishdan iborat. Gibrid yuritmali avtomobillar quyidagi tartibda ishlaydi: avtomobil g'ildiragi akkumulyator batareyalaridan quvvat oladigan elektrodvigatel yordamida harakatlanadi, dizel dvigateli esa akkumulyatorni zaryadlaydigan generatorni harakatga keltiradi. Bundan tashqari, dizel transmissiya bilan bog'langan bo'lib, bir qism quvvatini g'ildiraklarga beradi. Shu tufayli harakat boshlanayotganda ortiqcha shovqinsiz va yonilg'i sarflamasdan maksimal tezlanishga erishiladi.

Umumiy holda gibrid avtomobil, bu – harakatlantiruvchi kuch sifatida o'zaro bog'lanishda bo'lgan elektrodvigatel va ichki yonuv dvigatelidan foydalaniladigan hamda odatdagи yonilg'idan va akkumulyator batariyasi zaryadidan oziqlanadigan avtomobildir. Amaliy jihatdan agar avtomobil to'xtash joylarida dvigateli o'chirmasa, rekuperativ tormozlash sistemasiga ega bo'lmasa va elektromotordan hech bo'lmasa yordamchi dvigatel o'rnida foydalanilmasa, bu avtomobilni gibrid deb aytaolmaymiz. Shu jihatdan gibrid avtomobillar quyidagi tiplarga bo'linadi.

1 — tip 42 voltlik akkumulyatorga ega bo'lgan an'anaviy sistema u tipdagи avtomobilda quyidagi funksiyalar bajariladi:

— to'xtash joylarida dvigateli o'chiradi;



- tormozlash hisobiga akkumulyatorni zaryadlaydi;
- elektormotor harakatlantiruvchi kuch sifatida ishlatilmaydi.


2 — tip Passiv gibrild deb ataladigan bu avtomobilarda kichik akkumulyator tezlik olishda qo'llaniladigan kichik elektromotor mavjud. Bu avtomobilda :

- to'xtash joylarida dvigatel o'chiriladi;
- rekuperativ tormozlash sistemasidan foydalaniladi;
- elektromotor qo'shimcha rol o'ynaydi.

3 — tip To'liq gibrild – katta akkumulyator batareyasi hech bo'lmasganda bitta quvvatli elektromotori bo'lgan va har ikkala harakatlantiruvchi manbadan foydalaniladigan avtomobildir. Bu avtomobilda:


- to'xtash joylarida dvigatel o'chiriladi;
- tormozlash vaqtida batareya zaryadlanadi;
- faqat ichki yonuv dvigatelidan yoki elektromotordan, yohud har ikkisidan ham bir vaqtda foydalanish imkoniyatiga ega.

Gibrild yuritmalii avtomobilarning tuzilishi bo'yicha uchta asosiy sxemasi - ketma-ket, parallel va aralash sxemasi mavjud. Ketma-ket gibrild sxemasi engil avtomobilarda kam tarqalgan. Ba'zi avtobuslar, samosvallar va lakomotivlar kuch qurilmasi shu sxema bo'yicha yasalgan. Ketma-ket sxemada g'ildirakni elektromotor yurgizadi, kichik litrajli IYOD esa elektr energiyasi ishlab chiqaradigan generatori aylantiradi. Bunda tezliklar qutisi va quvvatli ichki yonuv dvigateliga hojat qolmaydi, lekin katta sig'imli akkumulyator kerak bo'ladi.




3.1-rasm. Ketma-ket gibrild yuritmalii avtomobil sxemasi

Hozirgi vaqtida eng ko‘p tarqalgan sxema – parallel sxemadir. Parallel sxema 1905-yilda nemis olimi Genri Pupper tomonidan patentlashtirilgan. Ular tezlik olishda ichki yonuv dvigatelia yordam beradigan, tormozlash vaqtida rekuperativ energiyani yig‘adigan quvvatli (10-15 kilovatt) elektromotor bilan jihozlangan. Transmissiya sifatida, odatda variator yoki planetar uzatma qo‘llaniladi.




3.2-rasm. Parallel gibrild yuritmali avtomobil sxemasi




3.3-rasm. BMW avtomobil zavodining parallel gibrild yuritmali avtomobil kuch agregati

Aralash sxemalarda planetar uzatma bo‘lmaganligi uchun energiya-ichki yonuv dvigateli va elektromotor o‘rtasida o‘zaro bog‘lanish hosil bo‘ladi. Bundan IYOD elektromotor bilan birgalikda g‘ildiraklarni va bir vaqtida generatorni aylantiradi. Bunda an’anaviy tezliklar qutisiga hojat qolmaydi. Elektronika motor va generatorning aylanishlar sonini rostlaydi va bu sistema pog‘onasiz transmissiyaga aylanadi.



3.4-rasm. Aralash gribid yuritmali avtomobil sxemasi

Yuqorida takidlab o'tilgan kamchiliklarga qaramay, ekologik xususiyati bo'yicha yaxshi natijaga ega bo'lganligi sababli elektromobil avtomobilari (3.6-rasm) ham rivojlanib bormoqda. AQShning Kaliforniya shtati atmosferasi eng ko'p ifloslangan hudud sifatida tilga olingach, Kaliforniya Havo resurslari qo'mitasi tomonidan 1998 yildan boshlab jami avtomobillarning 2 foizi, 2003 yildan esa 10 foizi atmosferaga zararli gazlarni chiqarmaydigan elektromobillardan iborat bo'lishi lozimligi haqida qaror qabul qilindi. Shu maqsadda General Motors kompaniyasi 1996 yildan boshlab EV1 elektromobillarini keng ko'lamda ishlab chiqara boshladi. 1997 yilda Kaliforniyada 5500 tadan ziyod ana shunday elektromobillar savdoga chiqarildi.




3.5-rasm. Mitsubishi Outlander elektromobil komponovka sxemasi.

Bugungi kunda elektromobillar nafaqat shaxsiy transport vosisi sifatida, balki vokzal, ishlab chiqarish sexlari va yirik savdo tarmoqlarida yuklarni tashish, attraksionlarda ko'ngilochar maqsadlarda ham keng

foydalanimoqda. Yaponiyalik elektromobil ishqibozlari klubi tomonidan ishlab chiqarilgan Daihatsu Mira EV avtomobili bir martalik quvvat bilan 1003.184 kilometr masofani bosib o'tdi. Litiy-ionli akkulmulyator bilan jihozlangan «Venturi Jamais Contente» elektromobili AQShning Yuta shtatida 1 kilometr masofa oralig'ida tezlikni soatiga 495 kilometrga olib chiqdi. Uning maksimal tezligi esa 515 kilometr-soatni tashkil etdi. «lekker Mobil» elektromobili barcha imkoniyatlar, jumladan, isitish tizimi yoqilgan holda Myunxenden Berlingacha bo'lgan 605 kilometrlik masofani bir martalik quvvat bilan bosib o'tdi. Mazkur elektromobil 55kVt quvvatga ega dvigatel va 115 kVt-soat sig'imli «DBM Energy» kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan «Kolibri» akkumulyatorlari bilan ta'minlangan bo'lib, o'rtacha tezligi soatiga 90, ba'zi joylarda 130 kilometrga yetdi.

Elektrodvigatellarning foydali ish koeffitsiyenti 88-95 foizni tashkil etmoqda. Ichki yonuv dvigatellarida esa bu ko'rsatkich 22-42 foizni tashkil etadi xolos. Elektrombillarning yana bir afzalligi shundaki, ulardan kam shovqin taraladi. Biroq, ko'pchilik tomonidan elektrombillarning shovqinsiz harakatlanishi piyodalar uchun sezilarsiz bo'lgani tufayli yo'l-transport hodisalariga sabab bo'lishi mumkinligi e'tirof etilmoqda. Shu bois ham ayrim ishlab chiqaruvchilar elektrombillarga tezlik soatiga 30 kilometrdan oshgandan so'ng sun'iy ravishda shovqin chiqarish moslamalarini o'rnatmoqdalar.



3.6- rasm. 2014 yilda ishlab chiqarilgan elektromobillar

Elektromobilarga oid eng katta muammo esa ularning akkumulyatorlari bilan bog'liq bo'lib qolmoqda. Asosan, ularni ishlab chiqarish va utilizatsiya qilish muammosi hozircha ijobiy yechim topgani yo'q. Sababi bunday akkumulyatorlarda atrof-muhit uchun zararli bo'lgan kimyoviy moddalar, jumladan, qo'rg'oshin, litiy va turli kislotalar qo'llaniladi.

Elektromobilarni keng ko'lamda ishlab chiqarish uchun ularni quvvatlovchi tuzilmalarni yaratish muammosi ham o'z yechimini kutmoqda. Ommaviy tarzda elektromobilarning uy sharoitida quvvatlanishi esa elektr energiyasi ta'minoti tizimlarida zo'riqish va uzilishlarni keltirib chiqarishi ehtimoldan yiroq emas. Shuningdek, quvvatlash jarayoni ko'proq vaqt ni talab etadi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, alternativ yoqilg'ilarda ishlaydigan avtomobilarning samarasi hamda ekologik ko'rsatkichlari yuqori ekanligi ularning rivojlanishidan dalolat. Ammo ularning rivojlanishi yoqilg'i tejamkorlik va ekologik xususiyatlarini me'yorlash uslubini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqaradi.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 yil 4-5-son, 118-modda; 2003 yil 5-son, 67-modda.
2. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2007 yil 39-son, 402-modda; 2013 yil 18-son, 233-modda, 41-son, 543-modda.
3. O'z RH 88.20-01:2003 «Нормы расхода топлива и смазочных материалов автомобильным подвижным составом и строительно-дорожными машинами».
4. Мацкарле Ю. Современный экономичный автомобиль / Пер. с чешск. В.Б. Иванова; Под ред. А.Р. Бенедиктова. М.: Машиностроение, 1987. – 320с
5. ГОСТ 20306-90. Автотранспортные средства. Топливная экономичность. Методы испытаний текст. М.: Издательство стандартов, 1990.
6. Топливные элементы в автомобилях//Автомобилестроение за рубежом. 2002. №7. С. 3-9.
7. Мухитдинов А.А. Научные основы выбора параметров и режимов управления двигателем и трансмиссией автомобиля: Диссертация кандидатский технический наук. - Ташкент: 2004. - 321 с
9. Fayzullayev Khaydarali. Zokirjonovich, O. O., & Ibragimovich, O. N. (2021). Performance Indicators of a Passenger Car with a Spark Ignition Engine Functioning With Different Engine Fuels. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 6254-6262.